



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

ikkinchidan, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to‘rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to‘qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIIY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH — BARQAROR TARAQQIYOT OMILI	111
Jo'rayev Komiljon Begmonovich	
Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAHAR VA SANOAT HUDUDLARINI «YASHIL» ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI	114
Berdiqulova Munira Faxriddin qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	118
Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi	
EKOLOGIK MASALALARDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI	123
Ergasheva Nodira Toxir qizi	



EKOLOGIK MASALALARDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI

Ergasheva Nodira Toxir qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti
ORCID: 0009-0008-9316-7489

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik muammolarni hal etishda parlamentlararo hamkorlik va xalqaro tajriba almashinuvining o'рни tahlil qilingan. Parlament diplomatiyasining mazmuni, uning xalqaro ekologik siyosatni shakllantirishdagi ahamiyati, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik mexanizmlari hamda parlamentlararo muloqotning ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, parlament diplomatiyasining afzalliklari bilan bir qatorda, uning amaliy faoliyatida uchraydigan ayrim muammolar va cheklovlar ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro tajriba almashinuvi va parlamentlararo hamkorlik ekologik qonunchilikni takomillashtirish, barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash hamda global ekologik muammolarni samarali hal etishda muhim omil ekanligi asoslangan.

Kalit soʻzlar: parlament diplomatiyasi, parlamentlararo hamkorlik, ekologik diplomatiya, xalqaro tajriba almashinuvi, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, xalqaro tashkilotlar, ekologik siyosat.

Abstract. This article analyzes the role of interparliamentary cooperation and international exchange of experience in addressing environmental problems. It examines the essence of parliamentary diplomacy, its significance in shaping international environmental policy, mechanisms of cooperation with international organizations, and the role of interparliamentary dialogue in ensuring environmental security. Along with the advantages of parliamentary diplomacy, certain challenges and limitations encountered in its practical implementation are also considered. The findings demonstrate that international experience exchange and interparliamentary cooperation are important factors in improving environmental legislation, supporting sustainable development, and effectively addressing global environmental problems.

Keywords: parliamentary diplomacy, interparliamentary cooperation, environmental diplomacy, international exchange of experience, environmental security, sustainable development, international organizations, environmental policy.

Аннотация. В статье проанализирована роль межпарламентского сотрудничества и международного обмена опытом в решении экологических проблем. Рассмотрены сущность парламентской дипломатии, её значение в формировании международной экологической политики, механизмы взаимодействия с международными организациями, а также роль межпарламентского диалога в обеспечении экологической безопасности. Наряду с преимуществами парламентской дипломатии изучены отдельные проблемы и ограничения, возникающие в процессе её практической реализации. По результатам исследования обосновано, что международный обмен опытом и межпарламентское сотрудничество являются важными факторами совершенствования экологического законодательства, поддержки устойчивого развития и эффективного решения глобальных экологических проблем.

Ключевые слова: парламентская дипломатия, межпарламентское сотрудничество, экологическая дипломатия, международный обмен опытом, экологическая безопасность, устойчивое развитие, международные организации, экологическая политика.

KIRISH

Ekologik muammolar bugungi kunda alohida bir davlat doirasida hal etilishi mumkin bo'lmagan global masalalar sirasiga kiradi. Iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, havo ifloslanishi kabi masalalar barchaga bir xil ta'sir qilmoqda. Shuning uchun parlamentlar o'rtasidagi hamkorlik va xalqaro tajriba almashinuvi juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turli mamlakatlarning qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida muntazam muloqot olib borish va tajriba almashishni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Masalan, bir davlatda qabul qilingan atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunlarning boshqa mamlakatlardagi qo'llanish amaliyotini o'rganish muhim ahamiyatga ega.



Xalqaro forumlar, parlamentlararo assambleyalar va maxsus ishchi guruhlar ushbu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday uchrashuvlarda erishilgan natijalar bilan bir qatorda, mavjud kamchiliklar va ulardan chiqarilgan xulosalar ham muhokama qilinadi. Natijada har bir tomon o'z qonunchiligini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tajriba almashinuvi xorijiy qonunchilik normalarini mexanik tarzda o'zlashtirish bilangina cheklanmaydi. U qonunlarning hayotga tatbiq etilishi, nazorat mexanizmlari va jamoatchilik ishtiroki kabi jihatlarni ham qamrab oladi. Ba'zi mamlakatlarda mahalliy aholi ekologik qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etadi, ba'zilarida esa texnik yechimlar ustunlik qiladi. Bu xilma-xillikni o'rganish orqali har bir davlat o'z sharoitiga mos yondashuvni tanlashi mumkin [1].

Umuman olganda, ekologik masalalarda parlamentlararo hamkorlikning kuchayishi Umumiy ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashadi. Birgalikda ishlash orqali yanada samarali qonunlar ishlab chiqiladi va amaliyotga tatbiq etiladi. Bu esa kelajak avlodlar uchun sog'lom muhitni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy va huquqiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur yondashuv Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining Fredin ishi yuzasidan shakllangan amaliyotida ham o'z ifodasini topgan. Keyinchalik Dubetska ishi doirasida Konvensiya asosida ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha davlat majburiyatlari masalasi ham ko'rib chiqilgan. Shu bois Sudning amaliyoti endi sanoat ifloslanishi, shovqin, tabiiy ofatlar va suv toshqinlari kabi turli masalalarni qamrab oladi. Muhimi, sud amaliyotida yetkazilgan zarar bilan bir qatorda, ekologik zarar yuzaga kelishi xavfi mavjud bo'lgan holatlarda ham davlatning javobgarligi masalasi ko'rib chiqilishi mumkin. Jamiyatdagi mavjud holatlarni hisobga olishga asoslangan mazkur yondashuv Sud amaliyotining ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirdi.

Parlamentlarning tashqi siyosatdagi o'rni va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati

So'nggi yillarda xalqaro munosabatlar tizimida parlamentlarning roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Ilgari tashqi siyosatni shakllantirish va amalga oshirish asosan ijro etuvchi hokimiyat vakolatiga kirgan bo'lsa, bugungi kunda parlamentlar ham ushbu jarayonning muhim ishtirokchisiga aylanmoqda. Bunga globallashuv, davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi hamda xalqaro tashkilotlar faoliyatining kengayishi sabab bo'lmoqda.

Parlamentlarning xalqaro faoliyatdagi ishtiroki davlatlar o'rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlash bilan birga, tashqi siyosatning ochiqligi va hisobdorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Parlament vakillari xalqaro anjumanlar, parlamentlararo assambleyalar va ikki tomonlama uchrashuvlarda qatnashib, mamlakat manfaatlarini himoya qiladi, tajriba almashadi hamda dolzarb xalqaro masalalar yuzasidan o'z pozitsiyasini bildiradi. Bunday hamkorlik davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi [2].

Hozirgi sharoitda xalqaro tashkilotlar faoliyatida parlamentlar ishtirokining kengayishi demokratik tamoyillarni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Parlamentlar xalqaro miqyosda qabul qilinayotgan qarorlarning shaffofligi, qonuniyligi va jamiyat manfaatlariga mosligini baholash imkoniyatiga ega. Shu orqali ular xalqaro boshqaruv tizimida jamoatchilik manfaatlarini ifodalovchi muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

Parlament diplomatiyasi davlat tashqi siyosatining samarali vositalaridan biri hisoblanadi. U rasmiy hukumat muzokaralarini to'ldiradi, siyosiy muloqotni davom ettirishga yordam beradi hamda ayrim murakkab masalalarni norasmiy shaklda muhokama qilish imkonini yaratadi. Ayniqsa, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda parlament diplomatiyasining amaliy ahamiyati ortib bormoqda.

Parlamentlarning asosiy vazifalaridan biri ijro etuvchi hokimiyatning tashqi siyosat sohasidagi faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishdir. Bundan tashqari, ular xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlash hamda fuqarolar manfaatlarini xalqaro maydonda ifodalash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Parlament a'zolari xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyati orqali demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va tinchlik g'oyalarini ilgari surishda ham faol ishtirok etadi [3].

Bugungi kunda parlamentlarning xalqaro munosabatlardagi o'rni tobora kengayib bormoqda. Ular nafaqat milliy manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy institut, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, davlatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash va global muammolarni hal etishga hissa qo'shuvchi muhim subyekt sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu sababli parlament diplomatiyasini yanada rivojlantirish zamonaviy xalqaro munosabatlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Parlamentlararo hamkorlik va parlament diplomatiyasining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi ahamiyati

Parlamentlarning xalqaro maydondagi faoliyati nafaqat siyosiy muloqotni rivojlantirish, balki ilmiy-tahliliy yondashuvlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy va xalqaro parlament tashkilotlari turli global muammolar yuzasidan takliflar ishlab chiqish, tajriba almashish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladigan muhim platformalar hisoblanadi. Ular parlamentlar faoliyatini takomillashtirish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari



suradi [4].

Bu borada Parlamentlararo ittifoq (Inter-Parliamentary Union – IPU) alohida o‘rin egallaydi. Mazkur tashkilot dunyo parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, vakillik demokratiyasini mustahkamlash hamda zamonaviy parlamentlar oldida turgan dolzarb muammolar yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratadi. IPU faoliyati parlamentlar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish, xalqaro muloqotni kengaytirish va umumiy manfaatlariga xizmat qiladigan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Parlament organlari huzurida faoliyat yuritayotgan ilmiy ekspertlar va tahlilchilar tomonidan tayyorlanadigan tadqiqotlar parlament qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tahliliy xulosalar va ilmiy tavsiyalar xalqaro parlament tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishida muhim omillardan biri bo‘lib, parlament diplomatiyasining amaliy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi [5].

Parlament diplomatiyasining xalqaro munosabatlardagi afzalliklari bir necha jihatlar bilan izohlanadi. Avvalo, parlamentlararo muloqot davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlashga, siyosiy kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal etishga hamda mojarolar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday hamkorlikda qarama-qarshilikka asoslangan yondashuvlardan ko‘ra, muzokara, kelishuv va diplomatik vositalarga ustuvor ahamiyat beriladi.

Shuningdek, parlament jamiyat manfaatlarini ifodalovchi institut sifatida fuqarolarning fikr va manfaatlarini xalqaro maydonga olib chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Parlament vakillari aholining ehtiyoj va qarashlarini xalqaro tashkilotlar faoliyatida aks ettirish orqali davlat tashqi siyosatining ochiqligi va demokratikligini kuchaytirishga hissa qo‘shadi.

Parlamentlar jamoatchilik manfaatlarini ifodalovchi vakillik instituti sifatida xalqaro muloqotning ochiqligi va hisobdorligini ta‘minlashga ko‘maklashadi. Shu sababli parlament diplomatiyasi xalq diplomatiyasining samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilib, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi [6].

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi parlamentlararo aloqalarning ko‘lami va mazmunini yanada kengaytirmoqda. Bugungi kunda parlament vakillari Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan global xavfsizlik, barqaror rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish va ekologik muammolar kabi masalalar bo‘yicha faol hamkorlik olib bormoqda. Bu esa parlament diplomatiyasining zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni yanada mustahkamlamoqda.

So‘nggi yillarda xalqaro ilmiy va fuqarolik jamiyati doiralarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida parlament assambleyasini tashkil etish g‘oyasi tobora ko‘proq muhokama qilinmoqda. Mazkur tashabbusni amalga oshirish muayyan institutsional va siyosiy kelishuvlarni talab etsa-da, uning istiqbollari butun dunyo parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganidan dalolat beradi. Yevropa Ittifoqi va Yevropa Parlamentining shakllanish tajribasi ham parlamentlararo integratsiya uzoq muddatli siyosiy sa‘y-harakatlar natijasida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatadi [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ekologik muammolar alohida bir davlat doirasida hal etilishi mumkin bo‘lmagan global masalalardan biriga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslarining kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolar davlatlardan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishni talab etmoqda. Ushbu jarayonda parlamentlar nafaqat milliy ekologik siyosatni takomillashtirish, balki xalqaro ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va ularning amalga oshirilishini nazorat qilishda ham muhim o‘rin egallaydi.

Parlamentlararo hamkorlik ekologiya sohasida ilg‘or tajribalarni o‘rganish, samarali qonunchilik amaliyotini almashish hamda umumiy ekologik maqsadlarga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro parlament tashkilotlari va parlamentlararo forumlar doirasidagi muloqot davlatlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash, dolzarb ekologik muammolar bo‘yicha umumiy yondashuvlarni shakllantirish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini keng joriy etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba almashinuvi har bir mamlakatga boshqa davlatlarning muvaffaqiyatli ekologik siyosati va qonunchilik amaliyotidan foydalanish imkonini beradi. Bunday hamkorlik ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun sog‘lom atrof-muhitni saqlashga qaratilgan qarorlarning sifatini oshiradi.

Kelgusida ekologik masalalar bo‘yicha parlamentlararo aloqalarni yanada kengaytirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda ilmiy va amaliy tajribalarni tizimli ravishda almashish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat ekologik muammolarni samarali hal etishga, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ekologik madaniyatni yuksaltirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu bois ekologiya sohasida parlament diplomatiyasini rivojlantirish zamonaviy xalqaro munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keohane R. O., Nye J. S. Power and Interdependence. – 4th ed. – Boston : Longman, 2012. – 330 p.
2. Kiss A., Shelton D. International Environmental Law. – 3rd ed. – Ardsley, N.Y. : Transnational Publishers, 2004. – XVII, 458 p.
3. Birnie P. W., Boyle A. E., Redgwell C. International Law and the Environment. – 3rd ed. – Oxford ; New York : Oxford University Press, 2009. – XXXVI, 851 p.
4. Parliamentary Diplomacy in European and Global Governance / ed. by S. Stavridis, D. Jančić. – Leiden ; Boston : Brill Nijhoff, 2017. – XVII, 393 p. – (Diplomatic Studies ; vol. 13).
5. Cutler R. M. The OSCE's Parliamentary Diplomacy in Central Asia and the South Caucasus in Comparative Perspective // Studia Diplomatica. – 2006. – Vol. 59, No. 2. – P. 79–93.
6. Inter-Parliamentary Union. Parliamentary Involvement in International Affairs: A Report by the Inter-Parliamentary Union to the Second World Conference of Speakers of Parliaments, New York, 7–9 September 2005. – Geneva : Inter-Parliamentary Union, 2005.
7. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution Adopted by the General Assembly on 25 September 2015, A/RES/70/1. – New York : United Nations, 2015.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

